



ELEKTROTEXNIKA VA MASHINASOZLIK SANOATI
SOHALARIDA KASBIY MALAKALARNI
RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**ELEKTR KO'TARGICH (LIFTLAR) LAR
MONTAJCHISI**



“Elektr ko‘targich (liftlar) lar montajchisi” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Elektr ko'targich (liftlar) lar montajchisi

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0089



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Elektr ko'targich (liftlar)lar montajchisi kasbiy standart "Lift bo'yicha texnik", "Liftlar bo'yicha mexanik", "Liftlar bo'yicha elektromexanik", "Liftlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyor", "Elektr ko'targichlar (liftlar) montajchisi" va "Ko'tarilish mexanizmlari va liftlarga dispetcher xizmat ko'rsatish operatori" kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

agregat – mahsulotning qismlari alohida yig'ilganiga qaramasdan to'la o'zaro almashuvchanlikka ega va shu bilan birga o'z vazifasini mahsulotda yoki mustaqil ravishda bajarish imkoniyatiga ega bo'lgan yig'ma birlik;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

detal – bu yig'ish operatsiyalari ishtirokisiz bir jinsli materialdan tayyorlangan mahsulotdir (masalan, po'latdan tayyorlangan val, quyib olingan korpus va boshqalar);

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

yig'ma birlik (uzel) – bu alohida yig'ilib va keyinchalik yig'ish jarayonida yaxlit holda ishtirok etuvchi mahsulotning tarkibiy qismidir;

yig'ma komplekt – bu mahsulotni yoki uning tarkibiy qismini yig'ish uchun ish joyiga uzatib beriladigan mahsulotning tarkibiy qismlari guruhi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi

tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

konstruktorlik yig'ma birlik – mustaqil yig'ish sharoiti unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan, faqat funksional ish vazifasini bajarish holatiga asoslanib loyihalangan yig'ma birlik;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mashina – bu bir turdagi energiyani boshqa tur energiyaga aylantirish yoki biror ish bajarish uchun maqsadli harakatni amalga oshiruvchi mexanizm yoki mexanizmlar majmuasidir;

mahsulot – bu korxonada tayyorlanadigan ishlab chiqarish buyumlari yoki buyumlar to'plamidir;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-maydagi "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va tarmoqning investitsiyaviy hamda eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4348-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi "Mis va noyob metallar xom ashyosini qayta ishlashning texnologik zanjirlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-295-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-yanvardagi "Elektrotexnika sanoatining ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-15-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi "Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-20-son Qarori;

Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son Qarori (IFUT-2.1);

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-oktabrdagi ““O‘zeltexsanoat” uyushmasining Elektrotexnika sanoatini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 877-son Qarori;

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-avgustdagi “Ohangaron Tech Industrial” texnoparkini boshqarish direksiyasi” davlat unitar korxonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 459-son Qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Elektr ko'targich (liftlar) lar montajchisi	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Elektr ko'targichlar (liftlar)ni loyihalashtirish, montaj qilish, sinovdan o'tkazish va ekspluatatsiya qilish uchun tayyor holatga keltirish. Uskunalarining xavfsiz, samarali va ishonchli ishlashini ta'minlash.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	C seksiyasi Ishlab chiqaradigan sanoat; 33 Mashina va uskunalarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va o'rnatish; 33.1 Tayyor metall buyumlar, mashina va uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish; 33.11 Tayyor metall buyumlar, mashina va uskunalarni ta'mirlash; 33.11.0 Tayyor metall buyumlar, mashina va uskunalarni ta'mirlash; 33.17.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa transport jihozlarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish; 33.20.0 Sanoat texnikasi va uskunalarni o'rnatish (montaj).	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Elektr ko'targich (liftlar) montajchisi kasbiy standarti ushbu mutaxassisning lift uskunalarini xavfsiz va sifatli o'rnatish, elektr va mexanik tizimlarni montaj qilish, ularni sinovdan o'tkazish hamda ishga tushirish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan amaliy malaka, texnik bilim va ish tajribasini belgilovchi aniq talablar, me'yorlar va qoidalarni o'z ichiga oladi.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		43220010 Liftlar bo'yicha dispetcherlik xizmati operatori	2
		74122001 Elektr ko'tarish qurilmalari (liftlar) montajchisi	3
		74122004 Liftlar bo'yicha elektromexanik	3
		74122005 Liftlar bo'yicha mexanik	3
		74122006 Liftlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyor	3
		31139003 Lift bo'yicha texnik	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	43220010 - Liftlar bo'yicha dispetcherlik xizmati operatori	A1.2	Ish o'rnini tashkil qilish	A1.01.2	Dispetcherlik uskunalarning ishlash holatini nazorat qilish
				A1.02.2	Ish o'rnida xavfsiz va qulay mehnat sharoitini ta'minlash
				A1.03.2	Xizmat davomida zarur hujjat va vositalarni tayyor holda saqlash
		A2.2	Materiallarni qabul qilish va ishlatish	A2.01.2	Dispetcherlikda foydalaniladigan sarflash materiallarini qabul qilish va hisobini yuritish
				A2.02.2	Qabul qilingan materiallarni belgilangan tartibda joylashtirish va saqlash
				A2.03.2	Mavjud materiallarni tejamkor va maqsadli ishlatishni ta'minlash
		A3.2	Lift nosozliklarini aniqlash va dispetcher ishlari sifatini nazorat qilish	A3.01.2	Lift qurilmalari faoliyatini doimiy monitoring qilish va nosozliklarni aniqlash
				A3.02.2	Aniqlangan muammolarni tegishli jurnallarga qayd etish va texnik xizmatga xabar berish
				A3.03.2	Dispetcherlik xizmatining ish sifati ustidan nazorat o'rnatish
2.	74122001 - Elektr ko'tarish qurilmalari (liftlar) montajchisi	B1.3	Lift qurilmalarini texnik xujjatlarga muvofiq yig'ish va montaj qilish	B1.01.3	Lift qismlarini montaj qilish va ularni o'z o'rniga to'g'ri o'rnatilishini ta'minlash
				B1.02.3	Mexanik tizimlarning har bir bo'limi to'g'ri faoliyat ko'rsatishini nazorat qilish
				B1.03.3	Montaj jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va ish o'rnini tozalash
		B2.3	Elektr ulanishlarini bajarish va boshqaruv uskunalarini o'rnatish	B2.01.3	Lift elektr tizimining kabellarini ulash va izolyatsiya qilish
				B2.02.3	Boshqaruv paneli va boshqa elektr qurilmalarini montaj qilish va tekshirish
				B2.03.3	Elektr sxemalariga muvofiq ishlarni bajarish va signalizatsiya tizimlarini ulash
		B3.3	Mexanik va elektr tizimlarini sinovdan o'tkazish va ishga tushirish	B3.01.3	Lift tizimlarini ish holatida sinovdan o'tkazish va nomuntazamliklarni aniqlash
				B3.02.3	Nosozliklarni bartaraf etish uchun zarur texnik choralarni ko'rish
				B3.03.3	Liftning barcha funksiyalari mukammal ishlashiga ishonch hosil qilish
3.	74122004 -	D1.3	Lift uskunalarini va elektr jihozlarini montaj qilish,	D1.01.3	Liftning mexanik va elektr tarkibiy qismlarini loyihaga muvofiq montaj qilish va o'rnatish

	Liftlar bo'yicha elektromexanik		ularni ishga tushirish va sinovdan o'tkazish	D1.02.3	Elektr jihozlarini ulash, boshqaruv panellarini ishga tushirish va ularning to'g'ri ishlashini ta'minlash uchun sinov ishlarini o'tkazish		
				D1.03.3	Sinov jarayonida aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish va liftning ishlashini texnik talablarga moslashtirish		
		D2.3	Liftlarning elektr va mexanik tizimlarini texnik xizmat ko'rsatish va profilaktik ta'mirlash	D2.01.3	Elektr tizimlari va mexanizmlarni muntazam tekshirish, nosozliklarini aniqlash va bartaraf etish uchun profilaktik ishlar amalga oshirish		
				D2.02.3	Lift mexanizmlari va elektr jihozlariga yog'lash, tozalash va sozlash ishlarini belgilangan reglamentga muvofiq bajarish		
				D2.03.3	Texnik xizmat vaqtida aniqlangan kamchiliklar va ta'mirga muhtoj jihozlar haqida tegishli hujjatlarni to'ldirish va xizmat guruhlariga xabar berish		
		D3.3	Liftlarda yuzaga kelgan nosozliklarni aniqlash, tezkor ta'mirlash va ishlab chiqaruvchi talablari asosida qayta sozlash	D3.01.3	Lift tizimlaridagi elektr va mexanik nosozliklarni diagnostika vositalari yordamida aniqlash		
				D3.02.3	Aniqlangan muammolarni ishlab chiqaruvchi texnik reglamentlari asosida qisman yoki to'liq ta'mirlash		
				D3.03.3	Ta'mirlangan jihozlarni qayta sozlash, ishga tushirish va normal ishlashini sinovdan o'tkazish		
		4.	74122005 - Liftlar bo'yicha mexanik	E1.3	Lift uskunalarini tekshirish va favqulodda xizmat ko'rsatish	E1.01.3	Liftlarni davriy tekshirish va ko'rikdan o'tkazish
						E1.02.3	Liftning bo'linmalari va agregatlarini tozalash va moylash
E1.03.3	Favqulodda lift uskunalarining nosozliklarini aniqlash va ta'mirlash						
E2.3	Liftlarni montaj ishlarini qabul qilishni tashkil etish			E2.01.3	Lift jihozlariga xizmat ko'rsatish va vizual ko'rikdan o'tkazish		
				E2.02.5	Liftning barcha ish rejimlarida to'g'ri ishlashini tekshirish		
				E2.03.3	Liftlarni belgilangan vakolat doirasida tekshirish		
E3.3	Lift uskunalarini tekshirish, ta'mirlash va ishlatish			E3.01.3	Lift uskunalarini ko'rik-tekshiruvdan o'tkazish		
				E3.02.3	Liftlarning mexanik uskunalarini ta'mirlash		
				E3.03.3	Liftning elektron jihozlarining ishlashini nazorat qilish		
5.	74122006 - Liftlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyor	F1.3	Liftning elektr tarkibiy qismlarini montaj qilish va ulanish ishlarini amalga oshirish	F1.01.3	Elektr kabellari va ulanishlarni montaj qilish, ularni texnik standartlarga muvofiq o'rnatish		
				F1.02.3	Boshqaruv panellari va boshqa elektr uskunalarini to'g'ri joylashtirish va o'rnatish		
				F1.03.3	Elektr ulanishlari sifatini tekshirish va izolyatsiya holatini nazorat qilish		
		F2.3	F2.01.3	Lift elektr jihozlarining holatini vizual va texnik usullar bilan tekshirish			

			Elektr uskunalarini profilaktik tekshirish, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajarish	F2.02.3	Elektr uskunalarini tozalash, yog'lash va ehtiyot qismlarni almashtirish
				F2.03.3	Profilaktik ta'mir ishlarini reja asosida amalga oshirish va xronologiyasini yuritish
			F3.3	Liftning elektr tizimidagi nosozliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish va ish holatida sinovdan o'tkazish	F3.01.3
		F3.02.3			Tezkor ta'mir ishlarini bajarish va texnik hujjatlarga muvofiq sog'lom holatga keltirish
		F3.03.3			Liftni sinovdan o'tkazish, ishlashini monitoring qilish va baholash
		6.	31139003 - Lift bo'yicha texnik	G1.5	Lift uskunalari va tizimlarining texnik holatini kuzatish, profilaktik tekshiruvlarni amalga oshirish
G1.02.5	Belgilangan texnik xizmat reglamenti asosida profilaktik ko'riklarni o'tkazish				
G1.03.5	Qurilmalarning ish parametrlarini aniqlash va ularning normalarga mosligini baholash				
G2.5	Aniqlangan nosozliklar yoki yetishmovchiliklarni texnik hujjatlar asosida bartaraf etish va sozlash			G2.01.5	Elektr va mexanik tizimlarda aniqlangan muammolarni to'g'ri baholash va sabablarini aniqlash
				G2.02.5	Ishlab chiqaruvchi va ekspluatatsiya hujjatlari asosida ta'mirlash ishlarini amalga oshirish
				G2.03.5	Nosoz bo'lgan qismlarni almashtirish, yog'lash, tozalash va qayta sozlashni bajarish
G3.5	Sinovdan o'tkazish ishlarini olib borish va liftning barcha ish rejimlarida to'g'ri ishlashini ta'minlash			G3.01.5	Ta'mirlangan yoki xizmat ko'rsatilgan liftni barcha rejimlarda sinovdan o'tkazish
				G3.02.5	Qurilmaning xavfsizlik tizimlari va avtomatika ishlashini tekshirish
				G3.03.5	Sinov natijalarini xizmat jurnaliga qayd etish va kerakli hisobotlarni tayyorlash

IV. Kasblar xaritasi va mehnat vazifalari tavsifi

Kasbning nomi:	Liftlar bo'yicha dispetcherlik xizmati operatori xizmatchi
Mashg'ulot nomining kodi:	43221
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Erkak va ayol (yuk ko'tarish va uzoq yurish talab qilinadi); Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishi kerak, yurak-qon tomir kasalliklari, orqa-miya muammolari va nafas yo'llari kasalliklari bo'lmasligi lozim.</p> <p>Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatani sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish Ko'nikmalarlariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.

Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	tayanch o'rta ta'lim + ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Liftlar bo'yicha mexanik
	3	Liftlar bo'yicha elektromexanik
	3	Liftlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyor
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.2- Ish o'rnini tashkil qilish	A1.01.2- Dispetcherlik uskunalarining ishlash holatini nazorat qilish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Dispetcherlik uskunalarining kundalik ishga yaroqlilik holatini tekshirish
		2. Real vaqt rejimida liftlar harakatini nazorat qilish va axborotlarni qayd etib borish
		3. Avtomatik signal va ogohlantirish tizimlarining ishlashini nazorat qilish
		4. Nosozliklar aniqlanganda zudlik bilan texnik xizmat ko'rsatish bo'linmasiga xabar berish
		Ko'nikmalar:
		Axborot-monitoring dasturlari bilan ishlash
		Signallar va nosozlik kodlarini aniqlash va talqin qilish
		Aloqa vositalari orqali aniq va tezkor axborot yetkazish
		Texnik muammolarni dastlabki baholash va tavsiya berish qobiliyati
		Bilimlar:
		Dispetcherlik tizimlarining ishlash prinsiplari va tarkibiy qismlari
		Liftlar harakati va xavfsizlik tizimlariga oid normativ hujjatlar
		Tashkiliy va favqulodda vaziyatlarda aloqa tartibi va protokollari
		Axborotni elektron bazalarga kiritish va dasturiy interfeyslar bilan ishlash asoslari
1. Ish o'rnini mehnat xavfsizligi talablariga muvofiq tashkil etish		
2. Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish va ularni muntazam tekshirib borish		

	A1.02.2- Ish o'rnida xavfsiz va qulay mehnat sharoitini ta'minlash	3. Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibiga amal qilish va boshqalarga ko'maklashish
		4. Ish joyini toza, tartibli va xavfsiz holatda saqlash
		Ko'nikmalar:
		Ish joyida xavfsizlik bo'yicha vizual tekshiruv o'tkazish va muammolarni aniqlash
		Shaxsiy va umumiy himoya vositalarini to'g'ri tanlash va ulardan foydalanish
		Favqulodda holatlarda to'g'ri harakat qilish va tezkor aloqa o'rnatish
		Ish joyida sanitariya-gigiyena va ergonomik qoidalarga amal qilish
		Bilimlar:
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha asosiy qonunchilik va normativlar
		Ish joyida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatar turlari va ularning oldini olish usullari
		Shaxsiy himoya vositalarining turlari va ularning qo'llanilishi
	Yong'in xavfsizligi va evakuatsiya qoidalari	
	A1.03.2- Xizmat davomida zarur hujjat va vositalarni tayyor holda saqlash	Mehnat harakatlari:
		1. Ish faoliyatiga oid hujjatlarni muntazam ravishda yangilab, tizimli saqlash
		2. Zarur asbob-uskunalar va vositalarni ishlashga tayyor holatda ushlab turish
		3. Hujjatlar va vositalarning holatini doimiy nazorat qilish
		4. Ish jarayonida foydalaniladigan vositalarni belgilangan tartibda joylashtirish va ro'yxatga olish
		Ko'nikmalar:
		Ish hujjatlarini aniqlik bilan yuritish va arxivlash
Zarur asbob-uskunalarni tayyorlash, sozlash va saqlash		
Texnik vositalarning ishlash holatini vizual va funksional tekshirish		
Tashkiliy va ishbilarmon yozuvlarni yuritishda aniqlik va tartiblilikni ta'minlash		
Bilimlar:		
Ish jarayonida talab qilinadigan texnik hujjatlar mazmuni		
Vosita va asbob-uskunalarining saqlash shartlari va texnik xizmat ko'rsatish qoidalari		
Hujjatlar aylanishi, rasmiylashtirish va arxivlashtirish tartibi		
Raqamli va qog'oz shaklidagi hujjatlar bilan ishlash talablari		

	Mas'uliyat va mustaqillik:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ish o'rnini mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik talablariga muvofiq tarzda to'g'ri tashkil etish va ish joyida tartib-intizomni saqlash uchun shaxsiy javobgar 2. Foydalaniladigan uskuna, vosita, himoya moslamalari va hujjatlarning ishga tayyor holatda saqlanishi uchun mas'ul 3. Xavfsiz va qulay mehnat sharoitini yaratishda mustaqil qarorlar qabul qilishga mas'ul 4. Ish joyini har doim saf holatda saqlash, chiqindilarni to'g'ri utilizatsiya qilish va atrof-muhitga nisbatan e'tiborli bo'lishga mas'ul 5. Rahbar ko'rsatmalarisiz, kundalik faoliyatni tashkil qilish va ishga tayyorgarlikni mustaqil bajarishga mas'ul
A2.2- Materiallarni qabul qilish va ishlatish	A2.01.2- Dispetcherlikda foydalaniladigan sarflash materiallarini qabul qilish va hisobini yuritish	Mehnat harakatlari:
		1. Sarflash materiallarini texnik hujjatlar asosida qabul qilib olish
		2. Olingan materiallarni miqdor va sifat bo'yicha tekshirish
		3. Materiallar harakatini qayd etish va hisobini yuritish
		4. Zaxira darajasini nazorat qilish va o'z vaqtida buyurtma berish
		Ko'nikmalar:
		Sarflash materiallarini to'g'ri aniqlash va belgilash
		Qabul qilish vaqtida materiallarni hujjatlar bilan solishtirish va rasmiylashtirish
		Materiallar hisobini yuritish
		Tahliliy tafakkur asosida sarflash darajasi va ehtiyojni aniqlay olish
	Bilimlar:	
	Sarflash materiallarining turlari, xususiyatlari va ularni saqlash shartlari	
	Ombor hisoboti, qabul qilish-berish hujjatlari bilan ishlash qoidalari	
	Materiallar harakatini hisobga olish va monitoring qilish tartibi	
	Inventarizatsiya va hisobot berish tartiblari	
	A2.02.2- Qabul qilingan materiallarni belgilangan tartibda joylashtirish va saqlash	Mehnat harakatlari:
1. Qabul qilingan sarflash materiallarini turiga qarab ajratish va belgilash		
2. Saqlash joylarida materiallarni tartibli va xavfsiz holatda joylashtirish		
3. Har bir materialga identifikatsiya belgilarini biriktirish		
4. Ombor yoki saqlash hududida tozalik va tartibni doimiy nazorat qilish		
Ko'nikmalar:		
Materiallarni to'g'ri tanlab, ularni belgilangan joylarga joylashtirish		

		<p>Saqlashda foydalaniladigan belgilar va hujjatlarni to'g'ri qo'llash</p> <p>Saqlash vaqtida materiallarning holatini kuzatish va zarar yetkazmasdan harakatlantirish</p> <p>Ombor hududida samarali harakat qilish va joylashuvni optimallashtirish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Materiallarni saqlashning sanitariya-gigiyena va xavfsizlik talablariga oid bilimlar</p> <p>Materiallar nomenklaturasi va tasnifi</p> <p>Ombor logistikasi va joylashtirish texnologiyalari</p> <p>Eskirish, yaroqsiz holga kelish va yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalari</p>
	A2.03.2- Mavjud materiallarni tejamkor va maqsadli ishlatishni ta'minlash	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Har bir topshiriq uchun kerakli materiallar miqdorini aniqlash va rejalashtirish</p> <p>2. Materiallarni me'yorda va isrofsiz ishlatishga e'tibor qaratish</p> <p>3. Qoldiq materiallarni hisobga olib, qayta foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish</p> <p>4. Materiallar sarfi bo'yicha statistik hisobot yoki nazorat kartalarini yuritish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Materiallarni me'yorga muvofiq taqsimlash va ularni isrof qilmaslik</p> <p>Qoldiq materiallarni tartibli saqlash va ularni qayta ishlatish</p> <p>Sarf darajasini nazorat qilish va optimal miqdorda material olish</p> <p>Hisob-kitoblar orqali materiallardan foydalanish samaradorligini baholash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Materiallarning xususiyatlari, ishlatilish maqsadi va sarf normativlari</p> <p>Tejamkorlik tamoyillari va samarali resurslardan foydalanish usullari</p> <p>Qayta ishlashga yaroqli materiallar haqida umumiy ma'lumotlar</p> <p>Ombor hisoboti va inventarizatsiya prinsiplari</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Dispetcherlikda foydalaniladigan sarflash materiallarini to'g'ri va o'z vaqtida qabul qilish, hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirish uchun javobgar</p> <p>2. Materiallarni belgilangan tartibda joylashtirish, ularni me'yorlarga muvofiq saqlash va himoyalangan muhitda saqlanishini ta'minlashga mas'ul</p> <p>3. Ombor yoki dispetcherlik hududida materiallar harakatini yuritishda aniqlik, halollik va hisobdorlikni</p>

		ta'minlash, ortiqcha va yo'qolgan materiallar uchun mas'ul
		4. Materiallardan foydalanishda tejamkorlik, maqsadlilik va samaradorlik tamoyillariga qat'iy rioya qilish, isrofgarchilikning oldini olishga mas'ul
		5. O'z vazifalarini rahbarning doimiy aralashuvisiz, mustaqil ravishda tashkil etish va bajarishga mas'ul
A3.2- Lift nosozliklarini aniqlash va dispetcher ishlari sifatini nazorat qilish	A3.01.2- Lift qurilmalari faoliyatini doimiy monitoring qilish va nosozliklarni aniqlash	Mehnat harakatlari:
		1. Liftlarning ish faoliyatini real vaqt rejimida dispetcher tizimi orqali kuzatish
		2. Qurilmalarning texnik holati bo'yicha avtomatik yoki qo'lda signal va ogohlantirishlarni tekshirish
		3. Nosozlik belgilari aniqlanganda tegishli texnik xizmat ko'rsatuvchi shaxslarni xabardor qilish
		4. Nosozliklar to'g'risida yozuvlarni tizimda qayd etish va zarur choralarni ko'rish
		Ko'nikmalar:
		Monitoring dasturlaridan foydalanish va axborotni to'g'ri talqin qilish
		Texnik parametrlar asosida nosozlik alomatlarini aniqlash va aniqlik kiritish
		Avariya yoki nosozlik haqida tezkor axborot berish va zarur choralarni boshlash
		Signal tizimlarini tekshirish va kerakli hujjatlashtirishni amalga oshirish
	Bilimlar:	
	Liftlar ishlash prinsiplari va asosiy komponentlari	
	Monitoring va avtomatik diagnostika uskunalari ishlash tartibi	
	Lift xavfsizligi me'yorlari va favqulodda holatlardagi harakatlar tartibi	
	Texnik xizmat ko'rsatish tartibi va nosozlik turlari	
	A3.02.2- Aniqlangan muammolarni tegishli jurnallarga qayd etish va texnik xizmatga xabar berish	Mehnat harakatlari:
1. Aniqlangan nosozlik yoki muammolarni texnik jurnal va elektron tizimga belgilangan shaklda yozib borish		
2. Har bir holat uchun aniqlik kiritilgan tavsif, vaqt va joy ko'rsatkichlarini kiritish		
3. Tizimda muammo qayd etilgach, tegishli texnik xizmat xodimlarini xabardor qilish		
4. Texnik xizmat vakillarining muammoni ko'rib chiqqanliklari va amalga oshirilgan ishlar haqidagi qaydlarini to'ldirishga ko'maklashish		
Ko'nikmalar:		
Standartlashtirilgan texnik jurnal va elektron tizimlarda yozuvlar kiritish		
Nosozlik haqida aniqlik kiritilgan texnik tavsiflar tuzish va tushunarli ifodalash		

		Texnik xizmatga ogʻzaki yoki yozma tarzda xabarnoma yuborish
		Qoʻllanilayotgan muammolarni ustuvorlikka qarab tasniflash va muhim holatlarda tezkor axborot berish
		Bilimlar:
		Lift tizimlaridagi keng tarqalgan nosozlik turlari va ularning belgilarini farqlash
		Texnik jurnal va elektron xabarnoma tizimlarining yuritish qoidalari
		Avtomatik signalizatsiya va aniqlangan muammolarni hujjatlashtirish talablari
		Texnik xizmat koʻrsatish boʻyicha muomala etikasi va xabardor qilish tartibi
	A3.03.2- Dispetcherlik xizmatining ish sifati ustidan nazorat oʻrnatish	Mehnat harakatlari:
		1. Dispetcherlik xizmatining kundalik faoliyatini monitoring qilish
		2. Vazifalarning oʻz vaqtida, aniqlik bilan bajarilishini tekshirish
		3. Ish jarayonida yuzaga kelgan kamchilik, uzilishlarni aniqlash va hujjatlashtirish
		4. Sifat nazorati natijalari asosida takliflar ishlab chiqish va rahbariyatga taqdim etish
		Koʻnikmalar:
		Ish jarayonini tahlil qilish, uzilish yoki xatoliklarni aniqlash va ularni hujjatlashtirish
		Sifat koʻrsatkichlari asosida baholash olib borish va hisobot tayyorlash
		Jamoaviy muhokama va tavsiya berish koʻnikmalariga ega boʻlish
		Ichki nazorat tizimlari va tahlil usullaridan foydalana olish
		Bilimlar:
		Dispetcherlik xizmatining texnologik jarayonlari va ish yuritish tartibi
		Ish sifati va samaradorligini baholash mezonlari
		Ichki audit va xizmat nazorati tamoyillari
	Mehnat intizomi, hujjat aylanishi va xizmat standartlari boʻyicha normativ hujjatlar	
	Masʼuliyat va mustaqillik:	1. Lift qurilmalari faoliyatini doimiy kuzatish va aniqlangan nosozliklarni zudlik bilan aniqlash hamda belgilangan tartibda tegishli xizmatlarga xabar berish uchun javobgar
		2. Dispetcherlik xizmatining ish sifati ustidan doimiy nazorat oʻrnatish va sifat buzilishlarini mustaqil ravishda aniqlab, tegishli chora koʻrishga masʼul
		3. Oʻz ishini ichki meʼyorlar va xavfsizlik talablariga qatʼiy rioya qilishga masʼul
		4. Favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish va ularning oqibatlarini yumshatish boʻyicha masʼul

		5.Tizimdagi kamchiliklar yuzasidan takliflar berish, xizmat sifatini oshirishga mas'ul
Texnik va/yoki texnologik talab		<p>1.Aloqa vositalari: Avtomatik va qo'l orqali boshqariladigan telefon apparatlari, Radiouzatkich va radiopriyomlar. Ichki va tashqi aloqa tizimlari (IP-telefonlar, interkom)</p> <p>2.Dispetcherlik panellari va boshqaruv tizimlari: Lift holatini nazorat qiluvchi monitorlar va displeylar Signal qabul qilish va uzatish qurilmalari Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (SCADA, PLC tizimlari bilan integratsiya qilingan modullar)</p> <p>3.Kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minot: Stasionar yoki portativ kompyuterlar, Dispetcherlikka mos dasturiy platformalar (masalan, lift monitoringi uchun maxsus SCADA yoki dispetcherlik tizimlari), Jurnal va elektron protokollarni yuritish uchun ofis dasturlari (MS Excel, CRM tizimlari)</p> <p>4.Zahira quvvat manbalari: UPS qurilmalari (uzluksiz quvvat manbai), Avtonom zaryadlovchilar</p>

Kasbning nomi:	Elektr ko'tarish qurilmalari (liftlar) montajchisi
Mashg'ulot nomining kodi:	74122
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Erkak va ayol (yuk ko'tarish va uzoq yurish talab qilinadi); Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishi kerak, yurak-qon tomir kasalliklari, orqa-miya muammolari va nafas yo'llari kasalliklari bo'lmasligi lozim.</p> <p>Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish Ko'nikmalarlariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	o'rta maxsus ta'lim umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	-

Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-6 razryadli Elektr ko'tarish qurilmalari (liftlar) montajchisi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Liftlar bo'yicha mexanik
	3	Liftlar bo'yicha elektromexanik
	3	Liftlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyor
	2	Liftlar bo'yicha dispetcherlik xizmati operatori xizmatchi
Mehnat funksiyalarining tasnifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3 - Lift qurilmalarini texnik xujjatlarga muvofiq yig'ish va montaj qilish	B1.01.3 - Lift qismlarini montaj qilish va ularni o'z o'rniga to'g'ri o'rnatilishini ta'minlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Liftning asosiy qismlarini texnik chizmalar asosida joyiga o'rnatish
		2. Mahkamlovchi elementlar yordamida lift qismlarini mustahkamlash
		3. Montajdan oldin va keyin qismlarning o'zaro mosligini va tekis joylashganligini nazorat qilish
		4. Qurilish maydonida xavfsizlik choralarini ko'rib, yuk ko'taruvchi texnikalardan foydalanib montaj ishlarini amalga oshirish
		Ko'nikmalar:
		Texnik chizmalar va sxemalarni o'qish va ularga muvofiq qismlarni montaj qilish
		Lift qismlarini mexanik asbob-uskunalar bilan to'g'ri joylashtirish va mustahkamlash
		Qismlar orasidagi muvofiqlik va harakatlanish erkinligini sinab ko'rish
	Montaj jarayonida xavfsiz ish yuritish va xavfli holatlarni oldindan aniqlash	
	Bilimlar:	
	Liftlarning konstruksiyasi, asosiy qismlari va ulanish sxemalari	
	Lift montajiga oid davlat standartlari, texnik reglament va yo'riqnomalar	
O'lchov asboblari va sozlash moslamalaridan foydalanish qoidalari		
Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va yong'in xavfsizligi normalari		
B1.02.3 - Mexanik tizimlarning har bir bo'limi to'g'ri	Mehnat harakatlari:	
	1. Har bir mexanik bo'lim ish holatini vizual va texnik usullar bilan tekshirish	
	2. Vibration, harorat va shovqin darajasini o'lchab, nosozlik belgilarini aniqlash	
	3. Yurgizish va to'xtatish sinovlarini o'tkazib, tizimlar sinxronligini baholash	

	faoliyat ko'rsatishini nazorat qilish.	<p>4. Nazorat natijalarini texnik jurnalga yozish va nosozlik aniqlanganda mas'ul xodimga xabar berish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Mexanik tizimlar ishlashini muntazam tekshirish va aniqlangan nosozliklarni hujjatlashtirish</p> <p>Asbob-uskunalar bilan aniqlikda o'lchash va baholashni amalga oshirish</p> <p>Normativ hujjatlar asosida texnik holatni tahlil qilish</p> <p>Mexanik tizimlarning ishlashini vizual hamda funksional nazorat qilish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Lift va boshqa ko'taruvchi qurilmalarning mexanik qismlari va ularning ishlash prinsipi</p> <p>Diagnostika vositalari bilan ishlash qoidalar</p> <p>Texnik xizmat ko'rsatish reglamentlari va normalari</p> <p>Mehnat xavfsizligi va texnik nazorat bo'yicha amaldagi talablar</p>
	B1.03.3 - Montaj jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va ish o'rnini tozalash.	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Montaj ishlarini boshlashdan avval xavfsizlik bo'yicha zarur choralarini ko'rish</p> <p>2. Ish joyida elektr tokidan himoya choralari ko'rib chiqish va xavfli zonalarni belgilash</p> <p>3. Ish tugaganidan so'ng montaj maydonini tozalash, asbob-uskunalarni tartibga keltirish</p> <p>4. Yuzaga kelgan chiqindilarni xavfsizlik me'yorlariga muvofiq yig'ish va utilizatsiya qilish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Montaj ishlari vaqtida xavfsizlik choralari mustaqil amalga oshirish</p> <p>Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish</p> <p>Ish jarayonidan so'ng ish joyini tizimli ravishda tozalash va asboblarni saralash</p> <p>Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi talablariga oid asosiy qonun va me'yorlar</p> <p>Montaj vaqtida yuzaga keladigan potensial xavflar va ularning oldini olish usullari</p> <p>Shaxsiy himoya vositalarining turlari va ularni to'g'ri qo'llash qoidalar</p> <p>Ish joyini sanitariya va ekologik tozalikka doir talablari</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Montaj ishlarini mustaqil bajarish, texnik hujjatlarga muvofiq qurilmalarni yig'ish, xavfsizlik qoidalariga amal qilish va bajarilgan ish sifati uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish.

		<p>2.Ish samaradorligini oshirish, nosozliklarni bartaraf qilish, montaj sifatini tekshirish va aniqlangan kamchiliklarni tuzatish choralarini ko'rish.</p> <p>3.Jamoadada ishlash qobiliyatini namoyon qilish, zarur hollarda ustoz yoki rahbar bilan maslahatlashib qaror qabul qilish, ish joyining xavfsizligini ta'minlash.</p> <p>4.Lift montaj jarayonini doimiy nazorat qilish va texnik me'yorlarga muvofiqligini ta'minlash orqali umumiy ish sifatini oshirish.</p>
<p>B2.3 - Elektr ulanishlarini bajarish va boshqaruv uskunalarini o'rnatish.</p>	<p>B2.01.3 - Lift elektr tizimining kabellarini ulash va izolyatsiya qilish.</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p>
		<p>1. Elektr sxema asosida zarur kabellarni aniqlash va joylashtirish</p>
		<p>2. Lift tizimidagi kabellarni terminal, ulagich yoki kontaktlarga ulash</p>
		<p>3. Kabellarni izolyatsiyalash va mustahkam joylashtirish</p>
		<p>4. Ulangan kabellarni elektr xavfsizligi me'yorlariga muvofiq tekshirish va sinovdan o'tkazish</p>
		<p>Ko'nikmalar:</p>
		<p>Elektr sxemalarini o'qish va ulanish ketma-ketligini aniqlash</p>
		<p>Kabellarni kesish, qirqish va izolyatsiyasini to'g'ri bajarish</p>
		<p>Elektr tokidan himoyalanish choralarini amalda qo'llash</p>
		<p>Elektr o'lchov vositalari yordamida ulanish sifatini tekshirish</p>
	<p>Bilimlar:</p>	
	<p>Liftlarning elektr sxemalari va ulanish tizimlari</p>	
	<p>Kabel markalari, ularning texnik xususiyatlari va qo'llanilish sohasi</p>	
	<p>Elektr xavfsizligi me'yorlari va izolyatsiya talablari</p>	
	<p>Elektr o'lchash asboblari va ulardan foydalanish qoidalari</p>	
	<p>B2.02.3- Boshqaruv paneli va boshqa elektr qurilmalarini montaj qilish va tekshirish.</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p>
<p>1. Elektr boshqaruv paneli sxemalarini o'rganish va kerakli qismlarni aniqlash</p>		
<p>2. Reja asosida elektr qurilmalarni joyiga o'rnatish</p>		
